



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

### GLOBALLASHUV VA UMUMBASHARIY MUOMMOLARNING FALSAFIY JIHATLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika  
Institutining Maktabgacha ta'lim  
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Raximboyeva Muazzamxon Ximmat qizi  
Ibodullayeva Zebo qizi G'ayrat qizi  
Musurmonqulova Yaxshigul Ilhom qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola bugungi kunda jahon ahlini qiynab kelayotgan globallashuv va umumbashariy muommolarning falsafiy yechimiga bag'ishlangan.*

**Kalit So'zlar:** *globallashuv, umumbashariy muommolar, demografik portlash, global muommolar, ijtimoiy ong, intersotsial muommolar, insoniyat taraqqiyoti.*

„Globallashuv“ (lot. Globus- shar, yer sayyorasi ) – XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy hodisa bo'lib, hozirgi davrdagi xalqaro tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, capital Tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot- mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushunchadir.

„Globallashuv“ atamasi dastlab amerikalik olim T. Levittning 1893-yili „Garvard biznes revyu“ jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi. 1985-yili esa taniqli amerikalik olim R. Robertson „Globalization“ iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani „odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi“ ni aks ettirib, „dunyoning birlashuvi va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishini“ ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

Odamzod nasli XX asrning ikkinchi yarmida globallashuv natijasida shunday muommolar domiga tortildiki, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi.

Umumbashariy muommolarning ba'zi bir guruhleri mavjudki, ularni hal qilishning o'zidayoq butun planetamizdagi ijtimoiy hayotning keying ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Bundy muommolar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Birinchidan, hozirgi paytdagi mavjud ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar bo'lib, bular shartli ravishda „intersotsial“ muommolar deb hisoblanadi.

Ikkinchidan, „inson va jamiyat“ o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq muommolar bo'lib, bularga aholi ko'payishining tez sur'atlar bilan ildam ketishi- „demografik portlash“ , kishilar salomatlidini saqlash, insoniyatning kelajagi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Uchinchidan, „inson-tabiat“ munosabatlarifa esa xom ashyo resurslarini tejash, aholini oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash kabi muommolar kiradi.

Xulosa qilib aytsak, globallashuv va umumbashariy muommolarni hal etishda falsafiy yondashuv bugungi kunning eng maqbul himoyasidir. G

Loballashuv bizning dunyomizni shakllantirishda davom etar ekan, terrorism va axborot urushi muommolarini hal qilish muvofiqlashtirilgan say-harakatlar, moslashuvchanlik va o'zaro bog'liq global jamiyat qadriyatlarini himoya qilishga sodiqlikni talab qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Falsafa asoslari: o'quv qo'llanma Q. Nazarov- Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.
2. Sh. Qahhorova. Global ma'naviyat- globallashuvning g'oyaviy asosi. Toshkent: Akademiya, 2008.
3. <http://ru.wikipedia.org/wiki>